

Asatova Barfiya Faxridinovna

Buxoro davlat universiteti

mustaqil izlanuvchisi,

Buxoro shahar 24-maktabning

oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi

barf8487@mail.ru

BOSHLANG'ICH SINFLARDA DRAMA TO'GARAKLARNI TASHKIL ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI: "SEHRLI SAHNA" TO'GARAGI TAJRIBASI ASOSIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun drama to'garaklarini tashkil etish va takomillashtirish metodikasi ilmiy asosda tahlil qilingan. Muallif tomonidan tashkil etilgan "Sehrlil sahna" drama to'garagi tajribasi asosida kompleks metodik tizim ishlab chiqilgan. Maqolada xalqaro va mahalliy tadqiqotlar bilan qiyosiy tahlil, pedagogik samaradorlikni o'lchash natijalari, metodik bosqichlar hamda amaliy tavsiyalar keltirilgan. Tadqiqot natijalari boshlang'ich sinflarda drama to'garaklarining o'quvchilar nutqi, ijodiy fikrlashi va shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: drama to'garagi, boshlang'ich sinf, "Sehrlil sahna", metodik tizim, nutq rivojlanishi, ijodiy faoliyat, pedagogik samaradorlik, sahna san'ati.

METHODOLOGY FOR ORGANIZING AND IMPROVING DRAMA CLUBS IN PRIMARY GRADES: BASED ON THE EXPERIENCE OF THE "SEHRLI SAHNA" CLUB

Abstract. This article scientifically analyses the methodology of organizing and improving drama circles for primary school students. A comprehensive methodological system has been developed based on the experience of the "Sehrlil sahna" (Magic Stage) drama circle organized by the author. The article presents comparative analysis with international and local research, pedagogical effectiveness measurement results, methodological stages and practical recommendations. The research results confirm that drama circles in primary schools have a positive impact on students' speech, creative thinking and personal development.

Keywords: drama circle, primary school, "Sehrlil sahna", methodological system, speech development, creative activity, pedagogical effectiveness, stage art.

Kirish. Zamonaviy ta'lim paradigmasida o'quvchining shaxsiy rivojlanishiga, ijodiy qobiliyatlarini ochib berishga va kommunikativ kompetentligini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni va 2022-yil 11-maydagi "Maktabgacha ta'lim va maktab ta'limini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" da estetik tarbiya, ijodiy faollik hamda kommunikatsion ko'nikmalarni rivojlantirish alohida vazifa sifatida belgilangan.

Drama to'garagi — bu faqat sahna san'ati emas, balki oquvchining emotsional intellektini, muloqot madaniyatini va jamoa ruhini shakllantiruvchi kompleks pedagogik vositadir. Chet el tadqiqotlarida (Bolton, 1984; O'Neill, 1995; Neelands, 2010) drama ta'limining kognitiv, affektiv va psixomotor rivojlanishga ta'siri keng o'rganilgan.

Biroq O'zbekiston sharoitida, xususan boshlang'ich sinflarda drama to'garaklarini tashkil etishning ilmiy-metodik asoslari yetarlicha ishlab chiqilmagan. Ushbu bo'shliqni to'ldirish maqsadida "Sehrlil sahna" drama to'garagi tajribasi asosida kompleks metodik tizim yaratildi.

Adabiyotlar sharhi va muammo tahlili. Drama ta'limi pedagogikasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllandi. Gavin Bolton (1984) "Drama as Education" asarida dramatik faoliyatni bolaning ichki dunyosini kashf etishning eng samarali

vositasi sifatida ta'riflaydi. Cecily O'Neill (1995) "process drama" tushunchasini kiritib, dramatik jarayonning o'zi (natijadan ko'ra) ko'proq pedagogik qiymatga ega ekanligini asoslaydi.

Jonathan Neelands (2010) ijodiy drama va rasmiy teatrning sintezi bo'lgan "Educational drama" tushunchasini rivojlantirdi. Uning ta'kidlashicha, drama to'garaklari bolalarda empatiya, o'zini boshqarish va tanqidiy fikrlashni bir vaqtda shakllantiradi.

Rossiya pedagogikasida K.S.Stanislavskiyning aktyorlik tizimi maktab yoshidagi bolalarga moslashtirilgan holda V.N.Meskina (2008) va N.F.Sorokinlar tomonidan keng tadqiq etilgan. O'zbekiston pedagogikasida esa B.Yo'ldoshev (2015), N.Rahimova (2018) va boshqalar maktabgacha ta'limda teatr elementlarini qo'llash masalalarini o'rganishgan, ammo boshlang'ich sinflardagi drama to'garaklari metodik tizimi hali to'liq ishlab chiqilmagan.

Tadqiqotimizning ilmiy yangiligi shundaki, birinchi marta boshlang'ich sinflarda drama to'garagini tashkil etishning to'rt bosqichli kompleks metodikasi, "Sehrli sahna" amaliy modeli asosida empirik ma'lumotlar bilan tasdiqlangan holda taqdim etilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot 2022-2025 yillar davomida Buxoro shahrida olib borildi. Tajriba-sinov ishlarida "Sehrli sahna" drama to'garagi a'zolari — 3-4-sinf o'quvchilari (n=24) ishtirok etdi. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Kuzatuv — har bir mashg'ulotda o'quvchilarning nutq, harakat va ijodiy faolligini qayd etish;
2. Suhbat va so'rov — ota-onalar va o'quvchilar bilan yarim tuzilmalashgan intervyu;
3. Mahsulot tahlili — yaratilgan sahna asarlari, rollar va sketchlar sifatini baholash;
4. Pedagogik eksperiment — nazorat guruhi (an'anaviy to'garak, n=20) va tajriba guruhi ("Sehrli sahna", n=24) natijalari taqqoslovi;
5. Statistik tahlil — o'sish ko'rsatkichlarini foizli hisoblash va t-test orqali ishonchligini tekshirish.

An'anaviy va yangi metodlar taqqoslovi

Jadval 1. "Sehrli sahna" drama to'garagining an'anaviy to'garakdan farqlovchi xususiyatlari

Mezon	An'anaviy to'garak	"Sehrli sahna" drama to'garagi
Dars shakli	Bir xil mashqlar	Ijodiy loyiha va spektakllar
O'quvchi ishtiroki	Passiv tinglovchi	Faol ijodkor va qatnashchi
Motivatsiya	Past (majburiy qatnashish)	Yuqori (o'z xohishi bilan)
Nutq rivojlanishi	Cheklangan	Keng (dialog, monolog, sahna nutqi)
Ijodiy fikrlash	Kam rag'batlantiriladi	Doimiy rivojlantiriladi
Jamoaviy ish	Kamdan-kam	Har bir mashg'ulotda
Natija	Yodlab o'qish	Sahna asari yaratish va namoyish etish

Jadval 1 ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, "Sehrli sahna" metodikasi an'anaviy yondashuvdan tubdan farq qiladi — u o'quvchini passiv qatnashchidan faol ijodkorga aylantiradi. Bu yondashuv Vygotskiyning (1978) proksimal rivojlanish zonasi nazariyasiga tayanadi.

"SEHRLI SAHNA" DRAMA TO'GARAGI: TASHKIL ETISH METODIKASI

"Sehrli sahna" drama to'garagi 2022-yil sentyabrda Buxoro shahrida tashkil etilgan. To'garakka 3-4-sinf o'quvchilari (7-10 yoshlilar) qabul qilinadi. To'garakning asosiy maqsadi — drama san'ati orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq, ijodiy va kommunikativ kompetentliklarini rivojlantirish.

To'garakning tuzilishi: haftalik 2 mashg'ulot (har biri 45 daqiqa), yiliga jami 72 soat. Har bir mashg'ulot uch qismdan iborat: isitish (10 daqiqa), asosiy faoliyat (25 daqiqa), aks ettirish va muhokama (10 daqiqa).

Jadval 2. "Sehrli sahna" drama to'garagi yillik o'quv dasturi

Bo'lim	Mavzu	Soat	Kutilayotgan natija
I bo'lim Kirish (1-oy)	Drama san'ati asoslari, ovoz va nafas mashqlari	8	Nutq texnikasini o'zlashtirish
II bo'lim Pantomima (2-oy)	Mimika, imo-ishoralar, harakatlar orqali ifoda	8	Jismoniy ifodalash ko'nikmasi
III bo'lim Dialog (3-oy)	Ikki va ko'p qatnashuvchili dialoglar	8	Muloqot madaniyati
IV bo'lim Rol o'ynash (4-oy)	Qisqa sahna asarlarini sahnalashtirish	8	Rolli obrazini yaratish
V bo'lim Spektakl (5-6-oy)	To'liq spektakl tayyorlash va namoyish	16	Jamoaviy ijod mahsulini yaratish
JAMI		48	

DRAMA TO'GARAKLARINI TASHKIL ETISHNING METODIK BOSQICHLARI

Boshlang'ich sinflarda drama to'garaklarini samarali tashkil etish uchun quyidagi to'rt bosqichli metodik tizim tavsiya etiladi:

Jadval 3. Drama to'garaklarini tashkil etishning metodik bosqichlari

Bosqich	Nomi	Mazmun	Davomiyligi
I	Motivatsion-tashkiliy	O'quvchilarni jalb etish, qiziqish uyg'otish, dastlabki ko'nikmalarni aniqlash	1-2 hafta
II	Texnik-malakaviy	Ovoz, nafas, mimika, harakatlar ustida ishlash; alohida ko'nikmalar shakllantirish	1-2 oy
III	Ijodiy-loyiha	Sahna asari tanlash, rollarni taqsimlash, rejissorlik	2-3 oy
IV	Namoyish-tahliliy	Spektaklni tomoshabinlar oldida ko'rsatish, tahlil va muhokama	1 hafta

I bosqich — Motivatsion-tashkiliy bosqichda o'quvchilarning drama san'atiga qiziqishini uyg'otish asosiy vazifadir. "Sehrli sahna" tajribasida bu bosqichda qisqa ko'rgazmali namoyishlar, mashg'ulot videolari va sinfda mini-ijro o'tkazildi. Natijada 24 o'quvchidan 22 tasi ixtiyoriy ravishda ro'yxatga yozildi.

II bosqich — Texnik-malakaviy bosqichda ovoz isitish mashqlari, nafas texnikasi, mimika va pantomima ustida maqsadli ishlash olib borildi. Stanislavskiy tizimining "jismoniy harakatlar metodi" boshlang'ich sinf yoshiga moslashtirildi.

III bosqich — Ijodiy-loyiha bosqichi to'garakning yadrosi hisoblanadi. Bu bosqichda o'quvchilar sahna asarini tanlash, matnni tahlil qilish, rollarni taqsimlash va rejissorlik elementlarini o'rgandilar. "Sehrli sahna"da o'quvchilar o'zlari yozgan qisqa pyesalarni ham sahnalashtirishdi — bu ilmiy yangilik sifatida alohida qayd etiladi.

IV bosqich — Namoyish-tahliliy bosqichda to‘liq spektakl tomoshabinlar — ota-onalar, sinfdoshlar va o‘qituvchilar oldida namoyish etildi. Namoyishdan so‘ng "Nima yaxshi chiqdi? Nima takomillashtirilishi kerak?" savollari asosida guruhliy muhokama o‘tkazildi.

PEDAGOGIK SAMARADORLIK NATIJALARI

Jadval 4. "Sehrli sahna" to‘garagi a‘zolarida ko‘nikmalar rivojlanishining dinamikasi (2022-2025 yillar, n=24)

Ko‘rsatkich	Boshlang‘ich daraja (%)	O‘quv yili oxiri (%)	O‘sinh
Nutq ravonligi	38	79	+41%
Jamoaviy ish ko‘nikmasi	44	86	+42%
Ijodiy fikrlash	31	74	+43%
O‘z-o‘ziga ishonch	29	77	+48%
Empatsiya (his-tuyg‘uni tushunish)	35	72	+37%
O‘quv fanlariga qiziqish	52	88	+36%

Jadval 4 ma‘lumotlari shuni ko‘rsatadiki, barcha ko‘rsatkichlarda sezilarli ijobiy o‘zgarish kuzatilgan. Ayniqsa o‘z-o‘ziga ishonch (48%) va jamoaviy ish ko‘nikmasi (42%) ko‘rsatkichlari eng yuqori o‘sinhni qayd etdi. Bu natijalar Neelands (2010) va Wagner (1999) tadqiqotlarida ta‘kidlangan "drama ta‘imining shaxsiy rivojlanishga ta‘siri" bilan mos keladi.

Statistik tahlil natijalariga ko‘ra (t-test, p<0.05), tajriba va nazorat guruhleri o‘rtasidagi farq statistik jihatdan ishonchli hisoblanadi. Bu "Sehrli sahna" metodikasining samaradorligini empirik tarzda tasdiqlaydi.

XALQARO TAJRIBA BILAN TAQQOSLOV

Jadval 5. Boshlang‘ich sinflarda drama to‘garagi: xalqaro va mahalliy tajriba taqqoslovi

Mamlakat / Tajriba	Drama to‘garagi shakli	Asosiy natija
Finlyandiya (PISA yuqori natija)	Ijodiy drama majburiy dasturda	Nutq, ijodiy fikrlash 40% yuqori
Buyuk Britaniya (NESTA tadqiqoti)	School theatre loyihalari	O‘z-o‘ziga ishonch 52% oshgan
Rossiya (Stanislavskiy tizimi asosida)	Bolalar teatr studiyalari	Hissiy intellekt rivojlanishi
O‘zbekiston, Buxoro ("Sehrli sahna")	Kompleks drama to‘garagi	Nutq 41%, ishonch 48% oshgan

Xalqaro tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, drama ta‘limi pedagogikaning ilg‘or yo‘nalishlarida asosiy o‘rinlardan birini egallaydi. "Sehrli sahna" tajribasi xalqaro ko‘rsatkichlar bilan solishtirish imkonini berdi va mahalliy sharoitda ham drama to‘garaklarining yuqori pedagogik samaradorlikka ega ekanligini tasdiqladi.

O‘zbekiston sharoitiga xos jihatlar qatorida milliy dostonlar, xalq ertaklari va zamonaviy o‘zbek adabiyoti asarlarini drama asosida sahnalashtirish alohida pedagogik qimmatga ega ekanligi aniqlandi. "Sehrli sahna"da «Alpomish» dostonidan lavhalar, "Zumrad va Qimmat" ertagi va "Navruz" bayramiga bag‘ishlangan asar sahnalashtirildi.

Amaliy tavsiyalar. Tadqiqot natijalari va "Sehrlı sahna" tajribasiga asoslanib, quyidagi metodik tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Drama to'garaklarini maktab yilining boshidan (sentyabr) tashkil etish maqsadga muvofiq, chunki bu yilning ikkinchi yarmida namoyish uchun yetarli vaqt qoladi.

2. Guruh hajmi 15-25 o'quvchidan oshmasligi kerak — bu har bir o'quvchiga yetarli individual e'tibor qaratish imkonini beradi.

3. Mashg'ulot mazmunini milliy adabiyot asarlari bilan boyitish o'quvchilarda vatanparvarlik hissinı ham tarbiyalaydi.

4. Ota-onalarnı jarayonga jalb qilish (kostyum tikish, dekoratsiya yasash) oila-maktab hamkorligini mustahkamlaydi.

5. O'quvchilarning o'zlari yozgan pyesalarini sahnalashtirish (ijodiy yozuv + drama sintezi) nutq va ijodiy fikrlashni bir vaqtda rivojlantiradi.

6. Har bir mashg'ulotdan keyin o'z-o'zini baholash kartochkasini to'ldirish o'quvchilarda refleksiya ko'nikmalarini shakllantiradi.

7. Yiliga kamida 2 marta ochiq namoyish o'tkazish to'garakning obro'sini oshiradi va yangi a'zolari jalb etadi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot boshlang'ich sinflarda drama to'garaklarini tashkil etish va takomillashtirishning to'rt bosqichli metodikasini ilmiy asoslagan holda taqdim etdi. "Sehrlı sahna" drama to'garagi tajribasi asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchı, drama to'garagi o'quvchilarning nutq ravonligini (41%), o'z-o'ziga ishonchini (48%), jamoaviy ish ko'nikmalarini (42%) va ijodiy fikrlashini (43%) sezilarli darajada oshiradi.

Ikkinchi, milliy adabiyot asarlari va o'quvchilar yozgan original pyesalarnı sahnalashtirish milliy tarbiya va ijodiy rivojlanishni uyg'unlashtiradi.

Uchinchi, taklif etilgan to'rt bosqichli metodik tizim (motivatsion-tashkiliy, texnik-malakaviy, ijodiy-loyiha, namoyish-tahliliy) boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga to'liq mos keladi.

Maqolaning ilmiy yangiligi shundan iboratki, birinchı marta O'zbekiston sharoitida boshlang'ich sinflarda drama to'garaklarini tashkil etishning empirik ma'lumotlar bilan tasdiqlangan kompleks metodik tizimi ishlab chiqildi. Kelajakda ushbu metodikani raqamli vositalar (video montaj, virtual sahna) bilan boyitish istiqbolli yo'nalish sifatida ko'rilmogda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bolton, G. (1984). Drama as Education: An Argument for Placing Drama at the Centre of the Curriculum. Longman. — 192 p.

2. O'Neill, C. (1995). Drama Worlds: A Framework for Process Drama. Heinemann. — 176 p.

3. Neelands, J. (2010). Structuring Drama Work: 100 Key Conventions for Theatre and Drama. Cambridge University Press. — 176 p.

4. Wagner, B.J. (1999). Dorothy Heathcote: Drama as a Learning Medium. Revised Edition. Calendar Islands Publishers. — 274 p.

5. Vygotsky, L.S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press. — 159 p.

6. Stanislavskiy, K.S. (2009). Aktyor o'z ustida ishlaydi. Toshkent: O'qituvchi. — 398 b.

7. Yo'ldoshev, B.Q. (2015). Maktabgacha ta'limda estetik tarbiya metodikasi. Buxoro: BuxDU nashriyoti. — 186 b.

8. Rahimova, N.A. (2018). Boshlang'ich sinflarda o'yin-drama texnologiyalari. Toshkent: TDPU nashriyoti. — 142 b.

9. Meskina, V.N. (2008). Teatralnaya pedagogika v nachalnoy shkole. Moskva: Prosveshcheniye. — 224 s.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PQ-224-son Qarori «Maktabgacha ta'lim va maktab ta'limini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida». — Toshkent: Adolat, 2022.
11. Fleming, M. (2011). *Starting Drama Teaching*. 3rd ed. Routledge. — 192 p.
12. Karimova, D.U. (2020). *Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish*. Samarqand: SamDU nashriyoti. — 118 b.
13. Asatova, B.F. (2024). *Boshlang'ich sinflarda drama to'garagini tashkil etishda yangi avlod darsliklaridan foydalanish metodikasi*. Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti. Ilmiy axborotnomasi. №8. B. 286-288.
14. Heathcote, D., Bolton, G. (1995). *Drama for Learning: Dorothy Heathcote's Mantle of the Expert Approach*. Heinemann. — 218 p.